

## «DEVONI GADOIY» NASHR VARIANTLARIDAGI NUQSONLAR TAHLILI

**Jo'raboyev Ikromjon Abdullajon o'g'li,**  
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat*  
*o'zbek tili va adabiyoti universiteti*  
*tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Jahon adabiyoti yo'lining shohbekati bo'lmish Hazrat Navoiyning turkiy she'riyati uchun zamin hozirlagan badiiy iste'dod sohiblaridan biri Mavlono Gadoiydir. XV asrning I yarmi she'riyati turkiy xalqlar adabiyoti tarixida alohida sahifani tashkil etishi sir emas. Shunga qadar asosan fors-tojik she'riyatidan andoza olib unga ergashish yo'lidan borgan turkiyzabon ijod ahli ayni shu davrga kelib o'z uslubi, individual ijodiy mahoratini namoyon eta boshladi. Turkiy she'riyatga bir qator yangi shakl va janrlar, badiiy topilma va poetik vositalarining kirib kelishi Gadoiy she'riyati bilan bog'liqdir.

**Kalit so'zlar:** mustazod, g'azal, qasida, tuyuq, to'rtlik, latoyifnoma, Muhokamat ul-lug'atayn.

**Аннотация.** Одним из талантов, проложивших путь турецкой поэзии Хазрата Навои, ставшего важной вехой на пути мировой литературы, был Мевлана Гадои. Не секрет, что поэзия первой половины XV века занимает отдельное место в истории литературы тюркских народов. Тюркскоязычные писатели, которые ранее в основном следовали образцу персидско-таджикской поэзии, в этот период начали демонстрировать собственный стиль и индивидуальные творческие способности. Введение в тюркскую поэзию ряда новых форм и жанров, художественных изобретений и поэтических приемов связано с поэзией Гадаи.

**Ключевые слова:** мустазад, газель, касыда, туюк, квартет, латоифнама, Мухокамат ул-лугатайн.

**Abstract.** One of the artistic talents who paved the way for the Turkish poetry of Hazrat Navoi, who was a milestone on the path of world literature, was Mevlana Gadoi. It is no secret that the poetry of the first half of the 15th century forms a separate page in the history of the literature of the Turkic peoples. Turkic-speaking writers, who had previously mainly followed Persian-Tajik poetry as a model, began to demonstrate their own style and individual creative skills at this time. The introduction of a number of new forms and genres, artistic inventions, and poetic devices into Turkic poetry is associated with the poetry of Gadai.

**Key words:** mustazad, ghazal, qasida, tuyuq, quartet, latoyifnoma, Muhokamat ul-lughatayn.

**Kirish.** Bir tomondan, Hazrat Navoiy ta'birlari bilan aytganda "forsiy... shuaro muqobalasida" bo'la oladigan darajadagi qalam ahlining yetishib chiqishi, ikkinchi tomondan esa she'riyatning rang-barang janrlarida yuksak san'at namunalarini yaratib "sohibdevon" shoir maqomiga ega bo'lgan ijodkorlarning maydonga kelishi bu davr o'zbek she'riyatining muhim yutuqlari edi. XV asr turkiy she'riyatining o'ziga xos uslub va ovoz egasi bo'lgan Mavlono Gadoiy "o'z davrining iste'dodli vakili va xalq ijodining ixlosmandlaridan"[1] bo'lib, adabiyotimiz tarixi ning yangi sahifasini yaratishda bevosita ishtirok etdi.

**Adabiyotlar tahlili.** Mavlono Gadoiy hayoti va adabiy merosi manbalarini aniqlash, nashr, tadqiq va tahlil etish borasida o'tgan asrning ikkinchi yarmi va yangi asrning o'tgan davri davomida mamlakatimiz hamda xorijiy ilmiy markazlarda bir qator ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, Muhammad Fuod Ko'prulu[2], E.Bloshe[3], A.Bombachi[4], Y.Ekman[5],

o‘zbek olimlaridan S.G‘aniyeva[6], E.Rustamov[1], E.Ahmadxo‘jayev[8], M.Rustamov[9] kabilar o‘zlarining maqola, monografiya va dissertatsion tadqiqotlarida Mavlono Gadoiy shaxsiyati, adabiy merosi, XV asr adabiy muhiti va jarayonidagi mavqei, lirik merosining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlariga doir fikr-mulohazalarini bayon ettilar. Bu borada, ayniqsa, ustoz olim E.Ahmadxo‘jayevning xizmatlarini alohida qayd etish lozim. Olimning bir necha yillar davomida olib borgan ilmiy tadqiqotlari natijasi o‘laroq 1972 yilda nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilindi, 1978 yilda “Gadoiy” monografiyasi nashr ettirildi. Ammo shuni aytish kerakki, shoir shaxsiyati va adabiy merosiga oid barcha masalalar to‘liq yoritilgan deb bo‘lmaydi. Jumladan, shoirning asl ismi, tug‘ilgan yili noma‘lum. Bizga shoirning faqat Gado taxallusi ayon xolos.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, matnshunoslik va manbashunoslik metodlari qo‘llanildi. Asosiy e‘tibor “Devoni Gadoiy” qo‘lyozmalari va ularning turli nashr variantlarini qiyosiy tahlil qilishga qaratildi. Shuningdek, ilmiy-tanqidiy matn tamoyillari asosida matnlarning leksik, grammatik va janriy xususiyatlari o‘rganildi. Qo‘lyozma manbalar bilan bosma nashrlar o‘rtasidagi farqlar aniqlanib, mavjud nuqsonlar tizimli ravishda tasniflandi. Tadqiqotda strukturaviy va interpretatsion yondashuvlar ham qo‘llanilib, she‘riy matnlarning mazmuniy va badiiy xususiyatlari ilmiy tahlil qilindi.

**Tahlillar va natijalar.** Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasida: “Mavlononing yoshi to‘qsondin o‘tubdur” degan qaydni o‘qishimiz mumkin. Ma‘lumki, “Majolis un-nafois” dastlab hijriy 807-(melodiy 1491–1492) yilda tuzilgan. Agar shu paytlarda Gadoiyning hijriy hisobda 90 yoshlarda bo‘lganligini nazarda tutsak, adib taxminan XV asr boshlarida ya‘ni 1403/1404 yillarda tug‘ilganligini qayd etish mumkin. Hazrat Navoiy tazkirada yana shunday yozganlar: “Bobir Mirzo zamonida she‘ri shuhrat tutti”. Abulqosim Bobir Mirzo 1452–1457 yillarda hukmronlik qilgan. Demak, Mavlono Gadoiy ijodi ayni shu davrda kamolot kasb etgan. Shuningdek, ulug‘ shoir “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida ham Mavlono gadoiy haqida alohida to‘xtalgan: “To mulk arab va sort salotinidin turk xonlarg‘a intiqol topti, Huloguxon zamonidin sultoni sohibqiron Temur Ko‘ragon zamonidin farzandi xalafi Shohruh Sultonning zamonining oxirigacha turk tili bilan shuaro paydo bo‘ldilar. Va ul Hazratning avlod va ahfodidin ham xush tab‘ salotine zuhurga keldi: shuaro Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoiy va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriy va Gadoiydeklar”.[10]

XV asr turkiy ijodkorlari ichida Gadoiy lirikasi ham muhim o‘ringa ega. Mavlono Gadoiy devoni mumtoz devonchilik an‘analari asosida tartib berilgan. Unda yetakchi janr g‘azal bo‘lib, g‘azallar qofiya yoki radifning so‘nggi harfiga ko‘ra arab alifbosi tartibida joylashtirilgan (devondagi ilk g‘azal-hamd va keyingi na‘t g‘azal bundan mustasno, chunki ular o -hoyi havvaz va nun harflari bilan tugaydi). Devonda jami yigirmata harf bilan tugaydigan g‘azallar mavjud.

Gadoiy devoni Lutfiy devoni bilan bir muqovada birlashtirilganligi o‘z vaqtida

ko'pgina fikrlarga ham sabab bo'lgan. Bu haqida E.Ahmadxo'jayev shunday yozadi: "Gadoiyning devoni Lutfiy devoni bilan birga kitobat qilinganligi uchun biz Lutfiy devoniga Gadoiy g'azallaridan kirib qol maganmikin degan mulohaza bilan Lutfiyning devonini ham ko'zdan kechirdik. Ammo, gumonimiz isbotlanmadi"[11]. To'g'ri, Mavlono Gadoiy va Mavlono Lutfiy bir adabiy muhit vakillari hamda ular ijodiy hamkorlikdagi shoirlardir. Bu haqida Gadoiy shunday yozgan:

Gar inoyat bo'lsa haqdin, dog'i sultondin nazar,  
Bu Gadodek Lutfi(y) kim bo'lg'ayki, Salmon bo'lmag'ay.

Albatta bu g'azalda devon haqida fikr bildirilmagan. Ammo, adabiy jarayondagi yelkadosh hamfikrlar, bir-biriga as'hoblar bo'lganligini anglashimiz mumkin. G'azalda Gadoiy o'zini Lutfiy va Salmon Sovajiy bilan tenglasha oladigan iste'dod sohibi ekanligini faxriya san'ati yordamida eslatib o'tadi. Gadoiy she'riyati tarkibi janriga ko'ra g'azal, qasida, mustazod va tuyuq deb e'tirof etiladi. Jami 237 ta she'rni o'z ichiga oladigan adabiy meros orasida 230 ta g'azal, 1 ta mustazod, 1 ta qasida va 5 ta tuyuq mavjud. Yuqorida aytib o'tganimizdek, mustazod va qasida g'azallar tarkibida keltirilgan.

Qayd etish lozimki, E.Ahmadxo'jayev va boshqa olimlarning tadqiqotlari, shuningdek, Gadoiy devoni nashrlarida shoirning bitta qasidasi qayd etiladi. Biroq, Yanosh Ekman tomonidan AQShdagi Indiana universitetida 1971 yilda chop ettirilgan Gadoiy devonining nashrida qasidalar 2 ta deb ko'rsatilgan ("The Divan of Gadai comprises 229 gazals, 2 qasidas (№ 204, 229), 1 mustazad (№199) and 5 tuyugs", ya'ni "Gadoiy devoni 229 ta g'azal, 2 qasida (№ 204, 229), 1 ta mustazod (№199) va 5 ta tuyuqdan iborat). Ekman nazarda tutgan ikkinchi qasida devondagi 229-she'r bo'lib, quyidagi matla bilan boshlanadi:

*Mehru mah ijtimoi'idi tug'di ajoyib axtare,  
Davri qamarda filmasal bo'ldi qironi akbare.*

Mazkur she'r shaklan yetti baytli g'azaldir. Biroq g'azal mazmunan qaysidir shahzodaga bag'ishlanganligi seziladi. Quyidagi baytda, ayniqsa, bu mazmun yaqqol aks etgan:

*Xor sog'inma, mudda'iy, oni kichik debonkim ush,  
Shoh otasi bikin bo'lur dam-badame g'azanzare.*

Biroq ushbu mazmunning o'zi she'rni qasida janriga mansub deb bilish uchun yetarli asos bo'la olmaydi. Zero mumtoz adabiyotimizda real shaxslarga bag'ishlangan madh g'azallar ham ko'plab uchraydi. Shu bilan birga she'rning vazni ham g'azallarga xosdir. Ma'lumki, mumtoz qasidalar (shu jumladan Hazrat Navoiyning turkiy va forsiy qasidalari) asosan uchta bahrda – hazaj, ramal va mujtass bahrlarida yozilgan. Yuqoridagi g'azal esa aruzning rajazi musammani matviyi maxbun (muftailun mafoilun muftailun mafoilun) vaznida yaratilgan. Bu ham uning qasidaga nisbatan g'azal janriga yaqin ekanligini asoslaydi. Shoir devonidagi g'azallar devonchilik an'analari tartibida joylashtirilgan. Tabiiyki, ularning yozilgan davri Devoni Gado ma'lum emas. Devondan o'rin olgan

go‘zal va sermazmun lirik asarlar, shubhasiz, salkam bir asrlik Gadoiy umrining turli davrlarida yaratilgan. Ustoz adabiyotshunos Hamid Sulaymon qayd etganlaridek: “Sharq xalqlari adabiyotida lirik asarlarning yozilish tarixini she‘r ostida ko‘rsatish, ayniqsa o‘rta asr davrlarida odat bo‘lgan emas... Turkiy va forsiy tilda she‘r yozgan shoirlarimiz... g‘azal oxirida shoir taxallusini ko‘rsatish bilan kifoyalanganlar, xolos”. Devonda “Gadoiy” taxallusi 9 ta g‘azalda qo‘llangan bo‘lsa, 197 ta g‘azal, 1 qasida, 1 ta mustazod va 1 ta tuyuqda shoir taxallusi “Gado” tarzda yozilgan, 28 ta g‘azalda esa taxallus qo‘llanmagan. Shoir taxallusi 205 ta g‘azalning maqta‘ - oxirgi baytida, 4 ta she‘rning esa maqta‘dan oldingi baytida qo‘llangan. Shu o‘rinda qayd etish joizki, shoir taxallusining g‘azallar matnida yozilish tarzi ayrim e‘tirozlarga sabab bo‘ladi. Nashrlarda “Gadoiy” tarzda yozilgan o‘rinlar qo‘lyozmada ikki xil tarzda ifodalangan. Aksariyat hollarda (aniqrog‘i sakkiz o‘rinda) bu taxallus forscha izofa bilan (ko‘pincha “xasta” so‘zi bilan) qo‘llangan:

*Men Gadoiy xastag‘a tekkaymu, yo rab, jur‘aye,*

*Jomi vaslingdin yana, ey soqiya siymin saqoq?*

Bir o‘rinda noaniqlikni ifodalovchi “yoy” (fors tili grammatikasida “yoyi nakale – noaniqlik yoyi deb nomlanadi) sifatida qo‘llangan (yuqoridagi baytda kelgan “jur‘aye” so‘zidagi kabi):

Gadoiy besh emastur, der raqibing,

Gadodurmen, vale sultondin ortuq.

Devoni Gado Asliyatda esa, birinchi baytdagi so‘z (كداى qo‘lyozma 126 b sahifa), ikkinchi baytdagi so‘z esa (كداى qo‘lyozma 125 a sahifa) tarzda yozilgan, ya‘ni talaffuzda qisqa to‘xtashni aks ettiruvchi “hamza” belgisi bilan farq qiladi. Bizningcha, mazkur ikki bayt kirill yozuvida farqlanishi va quyidagicha ifodalanishi lozim:

*Men Gadoyi xastag‘a tekkaymu, yo Rab, jur‘aye,*

*Jomi vaslingdin yana, ey soqiya siymin saqoq?*

*Gadoiy besh emastur, der raqibing,*

*Gadodurmen, vale sultondin ortuq.*

Mazmuni: Raqibing (meni) shunchaki bir gado, undan ortiq emas deb aytadi. Men Gadoman, biroq (ishqda) sultondan ham ortiqman. Bundan esa shoir taxallusini qanday yozish kerak: “Gadoiy”mi yoxud “Gadoyi” degan haqli savol tug‘iladi. Aslida ilmiy matnlarda shoir taxallusini “Gado” tarzda yozish maqsadga muvofiq, nazarimizda. Agar qo‘shimcha qo‘shish lozim bo‘lsa, uni “-iy” tarzida emas “-yi” (Atoyi kabi) tarzda yozish maqsadga muvofiq. Gadoyi adabiy merosi mamlakatimizda ilk marotaba 1965 yilda S.G‘aniyeva tomonidan “Shoir Gadoiy” nomi bilan nashr ettirildi. Mazkur kitobda shoirning 47 g‘azali va 1 ta mustazodi o‘rin olgan. Shoirning 1973 yilda E.Ahmadxo‘jayev tomonidan nashr ettirilgan “Devon”i 230 ta g‘azal, 1 ta mustazod, 5 ta qit‘adan tashkil topgan. 1986 yilda nashr ettirilgan “Navoiyning nigohi tushgan” to‘plamidan Gadoiyining 80 g‘azali va 1 ta mustazodi o‘rin olgan. Shuningdek, 1988 yilda nashr ettirilgan “Hayot

vasfi” to‘plamiga ham Gadoyi lirikasi kiritildi. Unda shoirning 223 ta g‘azali, 1 ta qasida, 1 ta mustazod va 5 ta to‘rtlik shaklidagi she‘ri o‘rin oldi. Sanab o‘tilgan nashrlar ko‘p jihatdan bir-birini to‘ldiruvchi, isloh qiluvchi xususiyatga ega. Biroq ularda ba‘zan devonni to‘liq qamrab olmaslik, ba‘zida esa lirik asarlarning matni bilan bog‘liq nuqsonlar kuzatiladi. Xususan, “Birinchi marta nashr etilganda unga devon tarkibidagi hamd va qasida kiritilmagan edi. Ikkinchi marta chop etilganda nashrga qasida kiritilib uch g‘azal to‘laligicha tushirib qoldirilgan”[12]. Shoir devonininig tarkib jihatdan eng mukammal nashri 2007 yilda M.Rustamov tomonidan amalga oshirildi. Unda Gadoyi she‘riyati uchun maxsus lug‘at ham ilova qilingan bo‘lib, shoir asarlarining til xususiyatlarini o‘rganishda qimmatli manbaa sanaladi. Xo‘sh, shoir devonining shuncha nashrlari bo‘la turib, bu ishga yana qo‘l urish ehtiyoji bormi? Avvalambor, aytish joizki, shoir devonining so‘nggi nashri bor yo‘g‘i 100 nusxada chop etilgan. Bu esa, tabiiyki, mamlakatimizdagi ko‘p sonli she‘riyat ixlosmandlari talablarini qondira olmaydi. Shu ma‘noda biz shoir asarlari asliyati va tabdili yanada mukammallashtirishda matnshunoslik va adabiy manbashunoslik nuqtai nazaridan quyidagi tamoyillarga asoslandik: 1) Mavlono Gadoiyning to‘liq tarjimai holi mavjud manbalar asosida tiklanadi; 2) Mavlono Gadoiy devon shoir sifatida devon tuzishda an‘ana bilan birga yangi xususiyatlarni ham tatbiq etgani dalillanadi; 3) eski o‘zbek adabiy muhitiga xos xususiyatlar negizida tekshiriladi; 4) qo‘lyozmaning matn xususiyatlari va uning nashr variantlari bilan o‘xshash va farqli jihatlari aniqlanadi, mavjud nuqsonlar ko‘rsatiladi; 5) qisman, Gadoiy devoni qo‘lyozmasi ilmiy tavsif qilinadi; 6) levondagi g‘azal, muxammas, musaddas, ta‘rix janridagi she‘rlar vazn, shakl va mazmun jihatidan yoritiladi.

Gadoiy va Lutfiy devonlari birga ko‘chirilgan bo‘lishi mumkin degan taxminlar bor. Ba‘zi g‘azallar boshqa devonlarga kirib ketgan bo‘lishi mumkin yoki ajralib ketgan bo‘lishi mumkin.

Devondagi hali e‘lon qilinmagan g‘azallardan namunalar ilk bora eski o‘zbek yozuvidan tabdil qilinib, ilmiy muomalaga kiritiladi.

Ikkinchidan, mazkur nashrda ham lirik asarlar matni va imlosi bilan bog‘liq nuqsonlar, janr masalalariga doir tushunmovchiliklar mavjud. Misol tariqasida bir g‘azalning maqta’siga e‘tibor qaratamiz.

*Tushti ko‘nglum yana bir huri pariyruksor ila,  
Kim deya bilman ani hech mahrami asror ila.*

Ushbu matla bilan boshlanuvchi g‘azal boshdan oxir oshiqona ruhda yozilgan bo‘lib, unda lirik qahramonning hijron iztiroblari, ag‘yor ranji va visol ilinji tavsiflanadi. G‘azalning maqta’si E.Ahmadxo‘jayev nashrlarida quyidagicha berilgan:

*Bizga moyil bo‘lg‘ali piri Gadoning xotiri,  
Multafit bo‘lmas jahonda o‘zga hech diyora ila.*

Mazmuni: Gado piring xotiri (xayoli) bizga moyil bo‘lganidan beri, (Gadoiy) o‘zga diyorga iltifotli bo‘lolmaydi (ko‘ngil qo‘ya olmaydi).

M.Rustamov tayyorlagan

nashrlarda esa quyidagicha:

*Bizga moyil bo'lg'ali beri Gadoning xotiri,  
Multafit bo'lmas jahonda o'zga hech diyor ila.*

Mazmuni: (Ma'shuqa) bizga moyil bo'lganidan beri, Gadoyi xotiri o'zga diyorga iltifotli bo'lolmaydi (ko'ngil qo'ya olmaydi). Ikkinchi variant go'yo g'azalning umumiy mazmuniga hamohangdek tuyuladi. Biroq: – qo'lyozmada “beri” tarzida o'qilgan so'zda faqat “yoy” harfining ikki nuqtasigina mavjud; – “bo'lg'ali” so'zidagi “-g'ali” qo'shimchasi “beri” so'zi bilan birgalikda o'rinsiz (grammatik) takrori yuzaga keltirgan; – “ma'shuqa” so'zini matnga qo'shish ehtiyoji tug'iladi. Bizningcha, ushbu so'zning ilk harfi “h” (◌) sifatida o'qilishi, ikkinchi misradagi so'z “diyor” tarzda emas, “dayyor” tarzda o'qilishi lozim:

*Bizga moyil bo'lg'ali Hiri, Gadoning xotiri,  
Multafit bo'lmas jahonda o'zga hech dayyor ila.*

Mazmuni: Hirot bizga moyil bo'lganidan beri, Gadoyi xotiri o'zga diyorlarga iltifotli bo'lolmaydi (ko'ngil qo'ya olmaydi). Shu kabi holatlar Mavlono Gadoyining lirik merosini qayta nashrga tayyorlash va ko'proq nusxada chop etish ehtiyojini yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari devonni tarjimalarida ham ayrim kamchiliklar ko'zga tashalanadi. Bunga misol hamd qismini boshida:

*Ey “qulillohumma molik” mulki ichra podshoh  
Birliging isboti uchun ikki olamdur guvoh,*

– deb tabdil qilingan. Bu o'rinda iqtibos belgisi xato berilgan. Chunki bu yerda Oli imron surasining 26 – oyatiga ishora bor. Aslida Ey “qulillohumma Molik-ul mulk” ichra podshoh ko'rinishida berilish kerak edi.

*Savlatning bir damda haqqo ratbu yobisni tamom,  
“Kun fa-kon” amri bila qilg'ay musaxxar besipoh.*

Bu bayt devon qo'lyozmasini o'zida ham xato ketib qolgan bo'lish ehtimoli bor. Chunki “Kun fa-kon” emas, balki “Kun fa yakun” ko'rinishida berilish kerak edi.

*Yadd-i qudrat birla bu arshi muallaqni yana,  
Saqlar ush farsh-i mutabbah ustida beishtiboh.*

Bu baytda mutabbah emas balki, mutabbaq ko'rinishida berilish kerak.

Izlanishlardan Faxriy Hirotiy qalamiga mansub “Latoyifnoma”ning Britaniya muzeyida saqlanayotgan 7669-raqam li nusxasining 83-sahifasida Mavlono Gadoyi haqida ma'lumotlar mavjudligi aniqlandi. Faxriy Hirotiy “Radoyif ul-ash'or” (“Radifdosh she'rlar”) bayozida XV asr fors tojik tilida ham she'rlar yozib, ma'lum e'tiborga ega bo'lgan ijodkorlar ro'yxatini tuzib, uning g'azallaridan namunalar keltiradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, maqolada “Devoni Gadoiy”ning mavjud nashrlari to'liq va mukammal emasligi, ularda matniy, imloviy va janriy nuqsonlar saqlanib qolayotgani asoslab berilgan. Shu bois devon qo'lyozmalarini qayta o'rganish, ilmiy-

tanqidiy matn tayyorlash va keng omma uchun yangi, akademik nashrni amalga oshirish zarurligi xulosa qilinadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Рустамов. Э.Р. Узбекская поэзия в первой половине XV века, ИВЛ. – М., 1963. – С. 145.
2. M.Fuat Köprülü, Dokuzuncu ve onuncu asirlardaki Çagatay sairleri, "Turk Yurdi", seri I, 1330/1914; Çagatay adabiyati,- "Islam ansiklopedesi", 3-cilt, 24-cüyaб Istanbul, Mao rif matbaasi, 1945. – S. 270-323.
3. E.Bloch, Catalogue des manuscrits turcs, 1932, №981, 96-б-161-a варақ.
4. Alessio Bombaci, Storia della literature turca, Milano, 1956. – S 127.
5. J.Eckmann, Çagatay dili örneleleri II. Gedai divanindan parçalar, Istanbul universitesi Edebiyat Fakültesi, "Turk dili va edebbiyati, dergisi", Istanbul Edebiyat Fakültesi matba asi, cilt X, I Eylül 1960, 65-110-s.; The Divan of Gada'i. Edited by Janos Eckmann. (In diana University Bublications, Uralic ind Altaic Series, vol. 113), pp. v. 538, Blooming ton, Indiana University; The Hague, Mouton, 1971.
6. Ганиева С. Шоир Гадоий, "Ўзбекистон маданияти" газетаси, 1 сентябр 1962, №70 (686); Гадоий. Шерлар/Нашрга тай ёрловчи ва сўз боши муаллифи С.Ганиева. – Т., 1965. "Яна Гадоийнинг қасидаси ва "Мажолис ун-нафоис"нинг ёзилиш тарихи тўғрисида", "Ўзбек тили ва адабиёти" журнали, 1972, 5-сон. – Б.53-56.
7. Рустамов. Э.Р. Узбекская поэзия в первой половине XV века, ИВЛ, М., 1963; Не которые вопросы сравнительного изучения узбекской литературы XV века с други ми восточными литературами (тюркская и персидско-таджикская), Докт. дисс., М. – Т., 1966; "Гадоийнинг қасидаси ва "Мажолис ун-нафоис"нинг ёзилиш тари хи", "Ўзбек тили ва адабиёти" журнали, 1967, 2-сон . – Б. 36-41.
8. Ахмадхўжаев. Э. Гадоийнинг хаёти ва ижодий мероси. Номзодлик диссертация. – Т.: Фан, 1972; Гадоий. Девон/ Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Э.Ахмадхўжаев. – Т., 1973.
9. Рустамов М. Лексика языка дивана Гадаи. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Т., 1992; Гадоий девонининг луғати ва матни. – Т.: Алишер Навоий номидаги Адабиёт музейи тахрир бўлими, 2007.
10. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн/Мукамал асарлар тўплами. – Т.: Фан, 2000. – Б. 25.
11. Ахмадхўжаев Э. Гадоий (Хаёти ва ижодий мероси). – Т.: Фан, 1978. – Б. 22.
12. Гадоий девонининг луғати ва матни/Луғатни тузиб, маттни нашрга тайёрловчи М.Рустамов. – Т.: Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи тахрир бўлими, 2007. – Б. 99.